

NAVOIYSHUNOSLIK ILMIDA OMONILLA MADAYEVNING “NAVOIY SUHBATLARI” ASARINING O‘RNI VA AHAMIYATI

Mamadaliyeva Mamlakat Qaxramon qizi

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti
universiteti tayanch doktoranti*

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 28.09.2025

Revised: 29.09.2025

Accepted: 30.09.2025

KALIT SO‘ZLAR:

*do‘st, vatan,
vaqt, shahmat, o‘zbek
tili.*

Ushbu maqolada Omonilla Madayevning Navoiy asarlari haqidagi suhbatlari ilmiy-nazariy nuqtai nazardan tahlil qilinadi va olimning Navoiy merosini o‘rganishdagi metodik yondashuvlari, badiiy talqin usullari hamda adib asarlarining g‘oyaviy-badiiy qatlamlarini ochib berishdagi o‘ziga xos qarashlari yoritilgan.

Buyuk olim, elimizning chinakam jonkuyari Alisher Navoiy o‘z zamonidan beri to‘xtovsiz o‘rganilib kelinadi. Shunga qaramay, uning hali kashf qilinmagan jihatlari, asarlarining chuqur tahlillari hali hamon insoniyatni hayrat olamiga solmoqda. Bugungi kunda ham Navoiy ijodi bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilyapti. Ular orasida Omonilla Madayev tomonidan yaratilgan “Navoiy suhbatlari” risolasi Navoiyshunoslikda o‘ziga xos o‘ringa ega. Adabiyotshunos bu tadqiqotda xalqimizning buyuk farzandi, mehnatkash ommaning yelkadoshi bo‘lgan Navoiy hazratlarining ibratli hayotlari va ul zotning asarlarini bugungi zamon kitobxoniga yaqinlashtirishga xizmat qiladi. Uning asarlarini o‘quvchi oson tushunishi uchun baytma-bayt tahlil qiladi. Omonilla Madayev Alisher Navoiy lirik merosi juda ham boyligi, undagi har bir misra olam-olam ma’noga dalolat qila olishini aytib o‘tgan va buni misollar orqali dalillagan. Uning ijodida do‘stlik mavzusi buning yoeqin namunasi bo‘la oladi. Olim Navoiy shu qadar til bilimdoni ekani birgina “do‘st” so‘zi bilan cheklanib qolmay uning sinonim ma’no bildiruvchi “habib”, “mahbub”, “anis” kabi

soʻzlarni ham qoʻllaganini aytib oʻtadi. [7-61]Olim Navoiyning doʻst tanlash uchun ,avvalo, har kim inson boʻlishi lozimligi haqidagi fikrlarini keltiradi.

Qilgʻay insoniyat ar koʻz mardumigʻa tutsa uns,

Ey Navoiy, yaxshidur insongʻa insondek anis. [1-170]

Omonilla Madayev bu misralar yanada tushunarli boʻlishi uchun mazmunini keltiradi: Agar har bir inson oʻziga yaqin tutishni xohlagan kimsaga koʻz tashlamoqchi boʻlsa, yoki har bir inson yaqin odamni oʻziga doʻst tutmoqni istasa, , ey Navoiy , har bir insonga haqiqiy inson doʻst boʻlsin. [7-62]Olim bu fikrlarga shunday izoh beradi: “ baytda “ inson” oʻzakli soʻz uch marta takrorlangan. Adib inson deb ataluvchi buyuk zotga mansub kishilarni inson deb atalishga loyiq boʻlishga chaqirmoqda”. [7-62]Omonilla Madayev “ Xamsa” asarida ham doʻst tushunchasini uchratishimiz mumkin ekanligini aytadi. Bu fikrni misollar bilan dalillaydi. “ Hayrat ul-abror” dostonining oʻn ikkinchi maqolatida qalamni zulm quroliga aylantirgan amaldorlar haqida hikoya qiladi. Ularning oʻzaro doʻstligi xalqqa azob berish maqsadida tuzilgan shartnoma ekanligini eslatadi. [7-64]

Bir-biri birla boʻlishib oʻyla doʻst,

Kim kishikim koʻrsa degay magʻzu poʻst.

Olim “ Farhod va Shirin” dostonida ham doʻstlik tuygʻusi ulugʻlanganini taʼkidlaydi. Navoiy tasvirida doim Farhod ogʻir vaziyatlarda qolsa Shopur yetib keladi. Bu orqali shoir har bir insonga samimiy doʻst kerakligini uqtiradi. Omonilla Madayev suhbatlarga mavzu tanlashda ham oddiylikdan murakkablikka qarab borgan. Toʻrtinchi suhbatni “ Navoiy ijodida vatan “ deb nomladi. Olim vatanni sevish tuygʻusini inson qalbida ilohiy qudrat bilan paydo boʻlgan tugʻma fazilat deya hisoblaydi. Har bir ijodkor, albatta, vatan haqida qalam tebratgan. Abdulla Avloniy “ Turkiy guliston yoxud axloq” asarida shunday deydi: “ Biz –turkistonliklar oʻz vatanimizni jonimizdan ortiq suydigimiz kabi , arablar arabistonlarini, qumlik, issiq choʻllarini, eskumular shimol taraflarini, eng sovuq qor va muzlik yerlarini boshqa yerlardan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi , tiriklik oson yerlarga oʻz vatanlarini tashlab hijrat qilurlar edi”. [4-28]Omonilla Madayev vatan har bir inson uchun qadrli ekanini va bu mavzu ham Navoiy ijodida oʻziga xos oʻrin tutishini taʼkidlagan. Olimning fikricha, Navoiy ijodida Vatan mavzusi ifodasini quyidagi ruboiy bilan boshlash maʼquldir.

Gʻurbatda gʻarib shodmon boʻlmas emish,

El anga shafiq-u mehribon boʻlmas emish.

Oltin qafas ichra gar qizil gul bitsa,

Bulbulga tikandek oshiyon boʻlmas emish.

G'urbat so'zi lug'atlarda: g'ariblik, kimsasizlik, musofirlik, vatandan uzoqda yashash ma'nolarida keladi. [6-551]Olim bu baytni shunday sharxlaydi: Vatanidan uzoqda yashagan kimsasiz odam g'amginlik dengiziga g'arq bo'ladi. [7-73] Keyingi misrada boshqa elning aholisi musofir kishiga mehribon bo'lmasligi haqida aytilgan. Shu o'rinda Omonilla Madayev bir necha yillar avval dunyo bo'yicha qush ishqibozlarining turli mamlakatlardagi musobaqalarida sovrinli o'rnlarni egallagan Qahhor aka bilan suhbatni keltiradi. U insondan bulbul haqida qiziqarli ma'lumotlarni oladi. Uning aytishicha, dunyo bo'yicha qush ishqibozlarining tanlovda qatnashish shartlaridan biri parvarish qilinayotgan qushlar orasida bulbulning bo'lishi ekan. Uch yildan beri ikkita bulbulni qafasda saqlab kelayotgan ekanlar. Ammo bulbul qafasda sayramas, ko'paymas ekan. Ularning fikricha bulbullar nazardan tashqari joylarda, tikanzorlarda in qurar ekan. [7-74] Olim fikrlari davomida Navoiy tabiatning bu sinoatlarini yaxshi bilganini aytadi. Ruboiyda bejiz oltin qafas ham bulbulning tikanzoriga teng kelolmasligini yozadi. Shoir vataniga sodiq insonlarni iymonli inson deb biladi. Chunki vatanni sevis, kishining iymonli ekanligi belgisidir. Beshinchi suhbat: "Navoiy-davlat arbobi, xalq himoyachisi "-deb nomlanadi. Navoiy hamisha xalq himoyachisi bo'lib yashagan. G'iyosiddin Xondamirning ma'lumot berishicha, Sulton Husayn Boyqaroning ko'ngliga Xorazm viloyatini obod qilish fikri kelib,Xurosondan uch ming xonadonni u yerga ko'chirish haqida farmon chiqaradi. Farmonga binoan uch ming xonadon a'zolari, ko'chlari, bor-yo'qlari bilan minglab chaqirim yo'lni azobda bosib o'tishga majbur edi. Bu haqida xabar topgan Navoiy bu farmonni bekor qildirish uchun shoh huzuriga o'n bir marta kiradilar. Bu naqadar katta jasorat edi. Husayn Boyqaro xalq homiysi iltimosini qisman bo'lsa ham bajaradi. Xorazmga uch ming emas, mingta xonadon ko'chiriladi. [9-95]Tarixchi Xondamir yana bir voqeani ham keltiradiki, unda ham hazratning oliyjanob ekanligidan darak beradi. 1500-yil iyul-avgust oylarida amaldorlar zarur harajatlar uchun yuz ming dinor miqdorida pul undirish zarurligini ma'lum qilishganda ellik ming dinori Hirot atrofida boylardan va yana ellik ming dinori Hirot aholisidan to'plashga qaror qilinadi. Bu masala yuzasidan noiblar Hazrat huzurlariga borganda, shoir: " Shu paytda xalqqa o'rinsiz soliq solinishini oliy manzilatli Sohibqiron saltanati uchun munosib ish deb bilmayman",-deb o'sha pulni o'z yonlaridan to'lab yuborganlar. [9-117]Hazrat Navoiy xalqi uchun muqaddas Haj ziyoratiga ketayotganlarida yordam so'rab borgan yurtdoshlariga: " Mo'minlar qalbiga xursandchilik kiritish butun odamlar va jinlarning qilgan ibodatidan yaxshiroqdir -degan hadisga asoslanib, sizning iltimosingizni ijobat etishga loyiq deb topdik va bandalarning manfaatini ko'zlab, bu safar ham ushbu istagimizdan qaytdik" [9-91],-degan javoblari bu ulug' insonning qanday

ekanligini ko'rsatib beradi. Shoir o'z yurti va xalqi orasida adolat, ezgulik, tinchlik, najot ramziga aylangan. Bunday sharaf har kimga ham nasib qilavermaydi. [7-100] Tarixchilarning ma'lumotiga ko'ra, qurilishlar tugallanishi oldida Hazrat tashrif buyurar, ko'pincha etagini qayirib, boshqalar qatori ishlardi. Bir necha kunlar orasida me'morlar, ustalar, hunarmandlarni qimmatbaho kiyimlar bilan mukofotlagan. Ishi barakali muhandislar, qo'li gul ustalarni, naqqosh san'atkorlar, sangtaroshlarni doimiy ravishda rag'batlantirib turilgan. Natijada ba'zan besh yillik reja bilan boshlangan qurilishlar bir yil ichida bitkazilgan. [9-73]Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma"da shunday degan: "Ahli fazl va ahli hunarg'a Alisherbekdek murabbiy va muqavviy (madad berguvchi) ma'lum emaskim, hargiz paydo bo'lmish bo'lgay". [8-233] Beshinchi suhbat orqali Omonilla Madayev o'quvchiga hayotda chinakam inson bo'lishni, xalqqa doim yordam berishni, uning dardi bilan yashash ulug' saodat ekanligini, buyuk bobomiz timsoli orqali gavdalandirgan. Oltinchi suhbat : " Alisher Navoiy-ruhshunos" deb nomlanadi. Bu suhbatda Navoiy uning muhlislariga ruhiy holatlarda yordamga kelishi tasvirlangan. Chunki bu murakkab hayotda insonning boshidan har xil holatlarni o'tkazadi. Goh quvonchdan porlasa, goh g'amdan qaddi bukiladi. Shunday sharoitda bizga Navoiyning shu baytlari malham bo'la oladi.

Chu oxir bo'lur biz adam, ey rafiq,

G'animat tutoli bu dam, ey rafiq! [2-468]

Olim Omonilla Madayev bu baytni shunday izohlaydi: " Yorug' dunyodagi inson hayoti abadiy emas. Inson borki, bandalikni bajo keltirishga , vafoti qonun ekanligini tan olishga majburdir. Hayoti davomida har bir daqiqani g'animat bilishi kerak". [7-107] Vaqt hech qachon ortga qaytmaydigan imkondir. Bu haqida ulamolarimiz shunday deyishgan: " Vaqt qilich kabidir, agar sen uni kesmasang, u seni kesadi". [5-29]Alisher Navoiy ham quyidagi baytda inson hayotidagi turli holatlarda ham vaqtning qadrlashiga ishora qiladi.

Bu bir damki, xushvaqtlig' berdi dast,

Tarab jomidin aylagil o'zni mast. [2-468]

O'quvchiga oson bo'lishi uchun olim bu baytni ham go'zal sharxlaydi. Agar sen hayotda ekanligingga shukr qilsang, vaqt, sabr seni tashvishlaringdan xoli etadi. Agar yashayotganidan xursand bo'lsang, shodlik jomi senga sabr bersa, yomonliklar chekinadi. [7-108]Kitobxon olimning sharxlari asosida Navoiy ijodi osongina tushuna oladi. Uning vaqt va uning qadri haqidagi qarashlarini bugungi kunga solishtirish orqali o'quvchi ongiga yuqtiradi. Adabiyotshunos Navoiyning hayot tarozisidan o'tgan hikmatlar faqat o'zbek

ma'naviy olamini emas, balki jahon xalqlarining ma'naviyatiga hissa qo'shganini ta'kidlaydi.

Olam ahli bilingizkim, ish emas dushmanlig',

Yor o'lung bir-biringizgakim, erur yorlig' ish. [3-216]

Omonilla Madayev har bir baytni sharxlab, uning ma'nosini o'quvchi ongiga singdirishga harakat qiladi. Olim bu baytga shunday izoh beradi: " Inson dunyoga yaratuvchilik vazifasini bajarish uchun kelgan. Aqli, zakovati, jismoniy kuchi, ma'naviy imkoniyatini faqat ilm-fan taraqqiyotiga, madrasalar qurishga, daladan mo'l hosil olishga, zamondoshlarga huzur bag'ishlovchi bog'lar yaratishga ishlatishi kerak. Yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklarni yo'q qiluvchi urushlarning keragi yo'qligini " [7-109],-aytadi. Olim bu suhbat orqali kitobxonga Navoiyning asarlari sodiq do'st ekanligini uqtiradi. Uning dostonlarini " ruhshunoslik sirlarini o'zida mujassam etgan badiiy asarlar" [7-120],-deb ta'riflaydi. Olim yettinchi suhbatda Alisher Navoiyni o'zbek adabiy tilining asoschisi sifatida ta'riflaydi, uning o'zbek tiliga qo'shgan ulkan hissasini misollar yordamida tushuntiradi. Olim Navoiyning o'zbek tilini ko'klarga ko'targanini, uning milliy tilga keltirgan ta'rifidan ham anglash mumkinligini aytadi. Uning aytishicha, ravshan va ravonligi, uslubning chiroyliligi jihatidan arab tili nihoyatda ziynatlangandir. Arab tilidan so'ng uchta til asl va mo'tabardir. Ular turkiy, forsiy va hindiy bo'lib, Nuh payg'ambarning uch o'g'li Yofas(turk), Som (fors), Hom (hind) nomlari bilan bog'lanadi. [7-126] Olimlar adibning yigirma ikki asari borligi va ulardan yigirmatasi turkiy tilda, faqat ikkitasigina forsiy tilda yozilganini ta'kidlashadi. Bu esa Navoiy hazratlarining ona tilimizning himoyachisi ekanliklariga ishora qiladi. Navoiy tilimizning ustunligi boshqa tillardan qolishmasligini o'zining yozgan irod mahsullari bilan ko'rsatadi. Avvalo turkiy tilda g'azallar yozadi. Uning g'azallari mavzusi oldingi shoirlar kabi ishq-muhabbat, Allohga murojaat, Allohga sodiqlik, adolat, zamon mavzulari bilangina cheklanib qolmay, janr va mavzu ko'lamini kengaytirdi, yangi-yangi hayotiy muammolarga murojaat qildi, g'azallarida ijtimoiy hayot, insonlar o'rtasidagi munosabatlar sharhi, inson, adolat, vatan kabi tushunchalar aks etdi. Ilgari surilgan mavzularni mukammal yoritishga urinish oqibatida voqeaband g'azallar vujudga keldi. [7-129] Omonilla Madayev shoir asarlarini o'qigan kitobxon o'zini qiynab yurgan hayotiy vaziyatlarga yechim topa olishini ham ta'kidlaydi.

Shah yonin farzin kebi kajlar maqom etmish, ne tong,

Rostravlar arsadin gar tutsalar ruhdek qiroq. [3-258]

Omonilla Madayev bu baytning tarixini 1487-yil Navoiyning Astrabodga hokim qilib yuborilishi bilan bog'laydi. Majdiddinga o'xshagan shaxslar o'z manfaatlari uchun harakat qiladilar va shoh yonida turadilar. Navoiy esa iymonli, to'g'riso'z bo'lganligi uchun uni podshoh o'zidan uzoqda saqlashni afzal ko'radi. [7-130] Baytda jamiyatdagi nuqsonlardan biri shahmat o'yini orqali ochib berilgan. Qirol-shoh (donalar oq bo'lsa, shoh qora katakda, donalar qora bo'lsa shoh oq katakda joylashadi) uning chap tarafidan farzin-vazir o'rin oladi. Farzin taxtaning vertikal, gorizontol, diagonal kataklar bo'ylab harakat qiladi. Shoir bu holatni hisobga olib, xiyonat yo'lini ham nazarda tutadi. Chunki farzin o'ngga, chapga, to'g'riga yura oladi. Ammo to'ra (ruh) vertikal va gorizontol harakat qiladi. Navoiy ruhning faqatgina to'g'ri yurishiga urg'u beradi, u egri yo'ldan uzoqda, shuning uchun ham shoh bu sipohni eng chekkaga chiqarib qo'ygan,-deb afsuslanadi. [7-130] Omonilla Madayev shu narsani ham alohida ta'kidlaydiki, bugungi kunda ham jamiyatimizda bunday holatlar uchrab turibdi, olim Navoiy suhbatlarida ishtirok etayotgan toliblarni ruh kabi faqatgina to'g'ri yo'lda yurishlarini istaydi. Aynan shuning uchun ham bir baytni ham keng sharhlaydi, xulosalar beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Beshinchi jild. Xazoyin ul-maoniy. Badoe ul-vasat.-Toshkent; "Fan". 1999.-381-b.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. O'n birinchi jild. Xamsa. Saddi Iskandariy. Toshkent. "Fan", 1993.-468-b
3. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Uchinchi jild. Xazoyin ul-maoniy. G'aroyib us-sig'ar. Toshkent. "Fan", 1993.-216-b
4. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq.-Toshkent. "O'qituvchi", 1992.-96-b.
5. Abdulfattoh Abu G'udda Ulamolar nazdida vaqtning qadri.-Toshkent, "Munir", 2024.-208-b.
6. Madvaliyev, A., Xudayberganova D. O'zbek tilining izohli lug'ati.-T: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, VI jild b-551
7. Madayev O. Navoiy suhbatlari. T.: "O'qituvchi", -2018 b-248
8. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma.-Toshkent, "Fan", 1960.-268-b
9. G'iyosiddin Xondamir. Makorim ul-axloq. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.-Toshkent: 2015.- 232-b.